

## “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TURKCHA TARJIMASIDA BADIY USLUBGA OID MAKTUBLAR XUSUSIDA

**Davlatov Zoirjon Zokiraliyevich**

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti o‘qituvchisi

E-mail: [dzoirjon@mail.ru](mailto:dzoirjon@mail.ru).

**Inomiddinov Husniddin**

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Maqolada “O‘tkan kunlar” romanining turkcha tarjimasidagi maktublar aniqlangan va ular asl nusxa bilan qiyoslangan, badiiy uslubga oid maktublar tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** leksik, semantik, sözcükbilim, leksikologiya, semasiologiya, epistolyar.

### ABSTRACT

*The article identifies the letters in the Turkish translation of the novel "Last Days" and compares them with the original, analyzing the letters in an artistic style.*

**Keywords:** lexical, semantic, lexical, lexicology, semantics, epistolary.

### АННОТАЦИЯ

*В статье выявлены письма в турецком переводе романа "минувшие дни" и сопоставлены с оригиналом, проанализированы письма, относящиеся к художественному стилю.*

**Ключевые слова:** лексика, семантика, сечение, лексикология, семасиология, эпистолярность.

### KIRISH

“O‘tkan kunlar” romanini tarjima qilib, nashr ettirishda turkiyalik tarjimon Ahsen Baturning ham hissasi katta. “Ahsen Batur 1992-1996 yillar davomida o‘zbek nasrining go‘zal namunalaridan bir nechtasini – A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Adolat manzili”, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarini tarjima qilib (bu ishlari uchun tarjimon 1994-yilda respublikamizning

Alisher Navoiy mukofoti bilan taqdirlandi) Turkiyada nashr ettirdi. Keyinchalik Oybekning “Navoiy”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, X.To’xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o’limi”, N.Qobulning “Unutilgan sohillar” asarlarini turkchada chop ettirdi.”<sup>1</sup>

“XX asr o’zbek adabiyotining yorqin yulduzi, o’zbek romanchiligi maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning adabiy merosi nafaqat qardosh xalqlar, balki dunyo kitobxonlarining ham e’tiborini o’ziga tortib kelmoqda. Adibning “O’tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari o’zbek nasrining gultoji hisoblanadi.”<sup>2</sup>

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xususan, “O’tkan kunlar” romanining shuhrat topishida qardosh xalqlar tarjimonlarining mashaqqatli mehnati ham yotadi. Yozuvchi Tohir Malikning fikricha, “Bir asarni dunyo tanimog’i faqat darajasiga bog’liq emas, balki bu o’rinda qoyilmaqom tarjima ham muhimdir.”<sup>3</sup> Albatta, har bir satrida milliylik va tarixiylik ufurib turgan asarni tarjima qilish mutarjim oldiga murakkab vazifalarni qo’yadi. Birinchidan, tarjimon tarixiy asarga asos qilib olingan o’tmisht davr bilan yaxshi tanish bo’lishi kerak, ikkinchidan, asardagi milliy ruhni chuqur mushohada qila olishi darkor, o’zbekona lutf va urf-odatlarni puxta bilishi lozim, uchinchidan, asliyat tilini bilmaydigan tarjimonlar mutaxassislar tomonidan mukammal tarzda sharh va izohlar bilan tayyorlangan taglamalar bilan ta’milanishi zarur, to’rtinchidan, asliyat adabiyotining bilimdoni yoki mazkur adabiyot an’analardan boxabar bo’lishi talab etiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni e’tirof etish lozimki, qabul qiluvchi muhitning ham imkoniyatlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu holat, ayniqsa, qardosh bo’lmagan tillarga taalluqlidir. Buyuk rus adibi F.M.Dostoyevskiy ta’biri bilan aytganda, “Badiiy tarjimada bir so’z ortiqcha ham, kam ham bo’lmasligi kerak.”<sup>4</sup>

Abdulla Qodiriy kabi shaxsiyati va asarlari milliy ma’naviyatning mo’tabar namunasi bo’lgan ulug’ yozuvchining asarlarini har tomonlama tadqiq etmoq g’oyatda muhimdir.Uning bu asari turk Ahsen Batur tomonidan ham tarjima qilinib kitobxonlarga taqdim etilgan.Ma’lumki,badiiy asarlarda, xususan, romanlarda turmush, umuman borliq,hayot keng qamrovda o’z badiiy, real ifodasini topadi va bu hol o’rni bilan adibdan romanlarda maktub janriga ham murojaat etishni taqozo etadi. Asarda qatnashgan shaxslar, qahramonlar o’zaro muloqtlarda, vaziyat talabiga ko’ra,

<sup>1</sup> Ibrohimova Sh. “Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi.Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent-2010, 4-b.”

<sup>2</sup> I.A.Karimov,Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2-jild.T.:O’zbekiston,1996.

<sup>3</sup> T.Malik.tanlangan asarlar.5-jild.T.,2007.

<sup>4</sup> Федоров.Введение в теорию перевода. М.,1952

turli yozishmalardan ham foydalanadilar. Badiiy asarlardagi maktublarning o'ziga xos tilda yozilgan bo'lishi tabiiydir. Jumladan, mavjud bo'lgan bu maktublarning leksik, semantik va uslubiy jihatlari shu kunga qadar o'zbek tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, lekin Ahsen Baturning tarjimasidagi maktublar maxsus tadqiq etilgan emas. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida 17 ta maktub matni berilgan bo'lib, ularning turkcha tarjimasini atroflicha va chuqur tahlil qilish turkshunoslikning dolzarb va muhim vazifalaridandir.

"O'tkan kunlar" romanida jami maktublarning 13 tasi badiiy uslubga oid maktublar hisoblanadi. Ular quyidagilar:

- Yusufbek hojidan o'g'li Otabekka yozilgan maktub [1:34-35-36], [2:40-41-42-43];
- Musulmonqulga O'sh hokimi tarafidan yozilgan maktub [1:117-18-19], [2:121-122-123];
- Yusufbek hojining Mirzakarim qutidorga yozgan maktubi [1:147-148], [2:150-151];
- Kumushning Otabekka yozgan maktubi [1:170-171], [2:174-75-76-77];
- Otabekning Kumushbibiga yo'llagan maktubi (Aslida Homid tomonidan yozilgan) [1:174-175], [2:180-181];
- Otabekning Kumushga yozgan maktubi [1:182-183], [2:188-189];
- Otabekning Kumushga maktubi (Aslida Homid tomonidan yozilgan) [1:217-218], [2:224];
- Otabekning qayin otasiga yo'llagan maktubi [1:267-268], [2:272];
- Otabekning Kumushbibiga yozgan maktubi [1:272-273], [2:277-278];
- Usta Alimdan Otabekka yozilgan maktub [1:289-290], [2:299-300];
- Kumushning Otabekka yo'llagan maktubi [1:307-308], [2:318-19-20];
- Kumushning onasiga yozgan maktubi [1:376-77-78], [2:388-89-90];
- Avliyo otadan Yusufbek hojiga yo'llangan maktub [1:391], [2:402-403];

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi.

Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham etadilar.

Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi.

Bu uslubda har bir yozuvchining vogelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdag'i san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

Badiiy uslubda ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ottenkalar ko'proq anglashiladi.

Yusufbek hojidan o'g'li Otabekka yozilgan maktub matni tahliliga to'xtalsak:

“*Huvalbori*’... ko’zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o’g’limiz mulla Otabekka yetib ma’lum va ravshan bo’lg’aykim, alhamdulilloh biz duogo’y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do’stlaringiz munda *Haq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo’lib ko’z nurimizning duysi jonini subhi shom, ballki aldavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz*. *Janobi Haq* bod fursatlarda, yaqin va sa’id soatlarda to’kis-tugallik birlan diydor ko’rishmakka nasip va ro’zi qilsin, omin yorabbulolamin”[1:34].

“*Allah*’a hamdü senalar olsun!. Gözümüzün nuru, belimizin kuvveti, hayatımızın meyvesi oğlumuz molla Atabey'e varıp malum ve ayan olsun ki, elhamdülillah size duacı olan ben pederin, yaşlı anan ve yakın dostlarınız *Allah Tealadan* size sihhat ve selamet vermesini, sizleri korumasını niyaz ederiz. Gözümüzün nurunun gece gündüz, hatta kiyamete kadar selamette olmasını *Rabbul aleminden* temenni ve niyaz etmekteyiz. *Cenab-i Hak* en kısa zamanda, yakın ve bahlıklı saatlerde sağlık selamet içinde didar görüşmek nasip kilsin. Amin ya Rabbel alemin!” [2:40]

Ushbu jumlada bo’yoqdor so’zlardan ustalik bilan foydalanilgan. *Xudo (Allah) so’zining Haq Taolo (Allah Teala), Rabbulolamin (Rabbul âlemin), Janobi Haq (Cenab-i Hak)* kabi sinonimlari qo’llanilgan. Bu maktub matnlarining badiiyligini asl matnda ham, tarjimada ham to’la ta’minlab bergen.

Shunindek Otabek tasviri ham *ko’zimizning nuri (gözümüzün nuru), belimizning quvvati (belimizin kuvveti)* kabi tasviriy ifodalar bilan tasvirlangan. Bu esa obrazlilikni ifodalab kelmoqda.

Musulmonqulga O’sh hokimi tarafidan yozilgan maktub matnida:

“Davlatimiz stuni, *padari arus shahanshohi* Musulmonqul bahodir huzurlariga nomai humoyun barobari O’sh madorisotida tafsilda bo’ling’an faqir qirg’iz tullobig’a marhamat buyurg’anlari hadoyo tullobning darajai ilmiyalarini imtiyozan

taqsim qilindilar. Noma oxirida yosh shohimiz janobi xoqoni xavoqin, sultoni salotin hazratlariga padari arus shahanshohining panohi himoyatlarida ko'p yillar davru davron, ofiyat va salomatlik tilab navkarları...” [1:117].

“Devletimizin direğи, şahanşahın kaynatası Müsülmankul Bahadırlarının huzurlarına bu mübarek mektupla bildiririz ki, Oş medreselerinde tahlil yapan fakir Kırgız öğrencilerine lütfettiğiniz hediyeler, onların ilmi başarılarına göre dağıtılmıştır. Mektubumuzun sonunda genç şahımız cenab-i hakan-i havakin ve sultan-us salatin hazretlerine, peder-i arus şahanelerinin penah-1 himayelerinde çok yıllar devr-ü devran, afiyet ve selamet dileyen hizmetkarları.” [2:121]

Musulmonqulning ta'rif va tasnifi badiiy uslubning yorqin namunasi. Chunki muallif so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llagan, ya'ni metaforalardan foydalangan. *Davlatimin stuni (devletimizin direğи)* deya Musulmonqul nazarda tutilmoxda. Aslida davlatning ustuni bo'lmaydi, balki xalqning ishongan kishisi ma'nosida kelmoqda. So'zlarining ko'chma ma'nolarda kelishi badiiy uslubga xosdir, albatta! Tarjimada ham ayni ko'chma ma'noda kelmoqda.

Hukmdor so'zining ham ijobiy ma'noga ega bir necha sinonimlari qo'llanilgan. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Asl matnda	Tarjimada
<i>Padari arus shahanshohi</i>	<i>Şahanşah</i>
<i>Shoh</i>	<i>Şah</i>
<i>Janobi xoqoni xavoqin</i>	<i>Cenab-i hakan-i havakin</i>
<i>Sultoni salotin</i>	<i>Sultan-us salatin</i>

Sinonim so'zlarni qo'llash ham badiiy uslubga xosdir.

Yusufbek hojining Mirzakarim qutidorga yozgan maktub matnida:

Ammo siz hurmatlularga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an *tuyoqimiz* va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir [1:147].

Ama sizce de malumdur ki, bizim Atabey'den başka oğlumuz yoktur. Dünyada sırtımızı dayayacağımız tek dayanağımız, yegâne ümidişimiz, gözümüzün nuru, gönlümüzün sürüru oğlumuz Atabey'dir [2:150].

Jumla tarkibida kelgan birgina olmosh so'z turkumiga mansub *shul* ko'rsatish olmoshi aslida *shu* ko'rinishida bo'ladi. Badiiylikni oshirish uchun muallif *shul* tarzida qo'llagan. Tarjimada bu olmosh tushib qolgan. Otabekka nisbatan *tuyoq* so'zi ishlatilgan, bu so'z albatta ko'chma ma'nodagi so'zdir. Farzand ma'nosida kelmoqda. Tarjimada bu so'z *tek dayanacağımız* deb berilgan. İboralardan ham unumli

foydalanilgan. Ushbu jumlada *ko'z tikmoq* iborasi bor, ammo tarjimada bu ibora ham yo'q. Iboralar, ko'chma ma'noli so'zlar maktub matnining badiiy uslubda ekanligini tasdiqlamoqda. Tarjimada biroz badiiylikdan qochilgan.

Kumushning Otabekka yozgan maktub matnida:

*Negaki yer-u ko'klar, tog'-u toshlar va dunyodagi barcha narsalar manim aldang'anim uchun kulib masxara qilg'andek qaraydilar...* [1:170]

Negeki yeri kökler, tağu taşlar ve dünyada berçe nerseler mening aldanganim üçün kulib meshere kılgandek karaydilar...[2:174-175]

Matn tarjima qilinmasdan asl holicha berilgani uchun turk tiliga quyidagicha tarjima qilindi:

Niye ki, *yer ve gökyüzü, dağ ve taşlar, dünyanın her şeyi* benim aldandığım için *gülüüp alay eden gibi* bakıvorlar...

Ushbu jumlada muallif badiiy tasvir vositalaridan mohirona qo'llagan. Yer-u ko'k, tog'-u toshlar bularning hammasi jonsiz predmetlar, ularga inson xususiyati ko'chgan. Ular insonlar kabi masxara qilolmaydi. Bunday ifodalar bilan yozuvchi o'zining chiroyli badiiy uslubini yatarganligining shohidi bo'lamiz.

### XULOSA

Umuman,bu maktub matni tarjima qilinmasdan aslicha qoldirilganligi uchun tarjima qilindi va muallif uslubi to'la saqlanib qoldi.

Otabekning Kumushbibiga yo'llagan maktub matnida:

*Ma'lumingiz Toshkanddan uylanganimdan so'ng yolg'iz boshimg'a ham Toshkanddan, ham Marg'ilondan ikki xotin ushlab turish og'irliq qila boshladи* [1:174].

Malumunuz Taşkent'ten evlendikten sonra, *tek başıma* hem Taşkent'te hem de Mergilan'da iki hanımlı olmak ağır gelmeye başladı. [2:180]

Ushbu jumlada qo'llanilgan *bosh* so'zi sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chgan so'z hisoblanadi, bu esa tarjimada baş deb tarjima qilinib, asl matndagi ma'noni tashimoqda, muallif badiiy uslubining yorqin namunasi sifatida maktublar badiyiligini ta'minlab turibdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

- [1] – Qodiriy A., O'tkan kunlar, roman, "Sharq" Nashr.-matbaa aksiyadorlik kom-si Bosh tahr-ti. –Toshkent, 2012. - 384 b.
2. Ibrohimova Sh. B. "Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi." Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent-2010.

3. Qo'ng'uров R., Jo'rayev T. Epistolyar janrning tuzilishi va uning ayrim til xususiyatlari.-Samarqand,1992.-160-b.; Karimov S.O'zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand,1992.-22-b.; Jo'rayev T. Hozirgi o'zbek tilida epistolyar janrning til va uslubiy xususiyatlari:Filol.fanlari nomzodi...dis.avtoref.-Samarqand,1994.-24-b.
4. Choriyeva Z.T. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari.-Toshkent-2006.
5. Hamidov X., Rixsiyeva G.. Turk tili. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. Toshkent-2013.
6. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T. :Fan, 1980.
7. [2] – Kadıri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi A.Batur, Selenge Yayınları. –İstanbul, 2005. –403 s.
8. Федоров. Введение в теорию перевода. М.,1952.
9. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика.-М.,1969.